XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2022 - yil 9 - aprel VI-63-54-2-34-K/22 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumanidagi ziyoratgohni nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni hamda 2022-yil 15-fevraldagi 01-14-167-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib hamda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni hamda 2022-yil 15-fevraldagi 01-14-167-sonli ekspert xulosasi ma’qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni hamda 2022-yil 15-fevraldagi 01-14-167-sonli ekspert xulosasiga asosan G‘ijduvon tumani, Abduxoliq G‘ijduvoniy mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi ziyoratgohga Abduxoliq G‘ijduvoniy nomi berilsin.

3. Tuman statistika bo‘limi (N.Jahonqulov), Kadastr palatasi tuman filiali, tuman arxitektura va qurilish bo‘limi (D.Raximov)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining o‘rinbosari Sh.G‘aybullayev mas’ul etib belgilansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining

Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **M.Rahmatova**